



PEDAGOGIK INNOVATSIYALAR TADBIQIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Norboyev Farxod Chorshanbiyevich

norboevf@tersu.uz

Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8398144>

ARTICLE INFO

Received: 22th September 2023

Accepted: 29th September 2023

Online: 30th September 2023

KEY WORDS

Tadbiq etish, "qog'ozda tadbiq etish", tadbiqiy tadqiqotlar, innovatsiya, aralashuv yaxlitligi, ifodalangan o'zgarishlar nazariyasi.

ABSTRACT

Maqolada innovatsiyalarni tadbiq etish hodisasi mohiyati, bu jarayonga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar, tadbiq etishning istalmagan oqibatlari tavsiflangan. Ijtimoiy fanlarda tadbiqiy tadqiqotlar integratsiyasidagi til bilan, konseptual modellar bilan, tadbiq etuvchining shaxsiy yondashuvi bog'liq muammolar aniqlangan.

Kirish

Ijtimoiy fanlar bo'yicha tadqiqotchilar bir umumiy maqsadga ega: boshqalarning hayotini yaxshilaydigan bilimlarni rivojlantirish. Biroq, ushbu umumiy maqsadni amalga oshirish uchun foydalanadigan strategiyalar bir-biridan sanoqsiz tarzda farq qiladi. Tadqiqotchilar turli xil dasturlar dizaynlarini ishlab chiqadilar, turli xil nazariyalarni qabul qiladilar va turli maqsad, ko'lam, strategiya va metod bo'yicha tadqiqotlarni amalga oshiradilar. Nazariy jihatdan, dasturlar va yondashuvlardagi bu xilma-xillik, sohaga eng qiyin muammolarning mufassal va mukammal echimlarni ishlab chiqishga imkon berishi kerak. Biroq, bu farqlar buning o'rnida katta to'siq yaratayotganga o'xshaydi: tadqiqotchilar tashqarida yoki hatto o'z fanlari doirasida o'zlarining farazlari, g'oyalari, tadqiqot strategiyalari yoki topilmalarini boshqalar bilan bo'lishishi (suhbatlashishi, muloqoti) uchun umumiy kontseptual yoki operatsion vositalarga ega emasligi sabab, ular jamoaviy harakatlarining potentsial qiymatini to'liq anglay olmaydilar.

Tahlil va natijalar

"Tadbiq etish" o'zi nima? Ushbu maqolada biz tadbiq etishni ma'lum o'lchamlardagi faoliyat yoki dasturni amalda qo'llash uchun mo'ljallangan tadbirlar to'plami sifatida ta'riflaymiz. Ushbu ta'rifga ko'ra, tadbiq etish jarayoni muayyan maqsadga xizmat qiladi va mustaqil kuzatuvchilar tabiiy etish bilan bog'liq "muayyan faoliyatlar majmui" mavjudligi va ularning kuchini seza olishi kerak. Shuningdek, mustaqil kuzatuvchilar uning mavjudligi va kuchini aniqlashlari uchun tadbiq etilayotgan faoliyat yoki dastur etarlicha batafsil tavsiflangan bo'lishi kerak. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, tadbiq etish to'g'risida mulohaza yuritishda kuzatuvchi ikkita faoliyat to'plamidan (aralashuv darajasidagi faoliyat va tadbiq



etish darajasidagi faoliyat) va ikkita natijalar to'plamidan (aralashuv natijalari va tadqiq etish natijalari) xabardor bo'lishi kerak.

Biroq, tildan kelib chiqadigan qiyinchiliklar boshqa, kattaroq, asosiy to'siqdan dalolat beradi: tadqiqotchilar akademik fanlar bo'yicha o'zlarining kontseptual modellari haqida aniq, tushunarli muloqotga kirisha olmasligi va ularni birlashtira bilmasligi. Tadqiqotchilar tadqiq etishni o'lchashda ko'plab yondashuvlarga ega va bu xilma-xillikda innovatsiyalarning turli xil ko'rinishlari, konteksti, amalga oshirishga ta'sir qiluvchi omillar va ularning bir-biri bilan munosabatlarini o'z ichiga olgan bir qator aniq va yashirin modellar mavjud. So'nggi 8 yil ichida tadqiq etish jarayonini tavsiflovchi kamida oltita mustaqil ishlab chiqilgan, keng qamrovli modellar, shuningek tadqiq etishga ta'sir qiluvchi omillar doirasini tavsiflovchi va darajalovchi adabiyotlar sintezi nashr etilgan. Ruhiy salomatlik, xulq-atvor salomatligi va sog'liqni saqlash xizmatlari sohalarini qamrab oladigan ushbu modellar hamda adabiyotlar umumlashmalari juda o'xshash ma'lumotlarni bayon qiladi. Ularning har biri to'rtta katta toifadagi omillarni doimiy ravishda aniqlaydi: innovatsiyalarning xususiyatlari, individual foydalanuvchilarning xususiyatlari, tashkilotning xususiyatlari va tashkilotdan tashqaridagi atrof-muhit elementlari. Damschroder garchi nazariyalar konstruktida qisman o'xshashlik bo'lsa ham ko'plab nazariyalar mavjudligi, turli xil nazariyalar turli konstrukt (tushunchalar) tarmog'ini qamrab olishi va terminologiya hamda ta'riflar izchil emasligini ta'kidlaydi.

Bilimlarni almashinish va jamlash uchun landshaft arxitekturasini qurishda uchinchi to'siq innovatsiyaning o'z kontseptsiyasi va innovatsiyalarni tadqiq etish borasidagi mulohazalar bilan bog'liq. Yuqorida aytib o'tilganidek, innovatsiyalarni o'rganishda "nima ishlaydi" yondashuvi tayanch farazi innovatsiyalarni bo'linmas, butun sub'ektlar sifatida ko'rib chiqishni taklif qilishdan iborat bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, bunda asosiy samaradorlik savoli: "u ishladimi?" bo'ladi. Ammo bunda "yangilikning qaysi qismlari ishladi?" savloli yanada samarali savol bo'lishi mumkin. Ijtimoiy sharoitlarda amalga oshirilayotgan innovatsiyalarning aksariyati murakkab hamda ko'p qirrali, ular ko'plab o'zaro aloqador qismlardan iborat. Shunday ekan tadqiqot olib borishda aksariyati turli vaqtlarda har xil darajada qo'llanilishi talab etiladigan chora-tadbirlarga ega bo'lgan ushbu qismlarni juda aniq va alohia hisobga oluvchi tadqiq o'lchovlariga egalik katta ahamiyatga ega.

Bilimlarni almashish va jamlash uchun maxsus landshaft arxitekturasini yaratishda birinchi asosiy to'siq til hisoblanadi. Masalan, innovatsion diffuziya va barqarorlik sohalaridagi tadqiqotchilar ko'p so'zlarni bir-birining o'rnida ishlatishadi; barqarorlik, institutsionalizatsiya, uzoq muddatlilik, qamrov oshishi, qo'llab-quvvatlash, diffuziya – bularning barchasi tarqatish bilimlarning tarqalishi, uzoq muddatliligi va diffuziyasi leksikonining bir qismidir. Tadqiqot olib borishda aniqlik va umumiy kontseptual tushunishning muhim ahamiyatiga qaramay, tadqiqotchilar ushbu atamalarni sinonim sifatida ishlatadilar, hatto ular bu so'zlarga juda xilma-xil ma'nolarni qo'shadilar. Tadqiqot hodisasini tushunishda har qanday yutuqlarga erishishdan oldin, tadqiqotchilar bir-birini tushunishlari juda muhimdir.

Innovatsiyalarni tadqiq etish innovatsiyaning maqomiga: innovatsiya qay darajada – to'liq yo qisman tadqiq etilayotganligiga oid bo'ladi. Ba'zilar buni "tadqiq etishning aniqligi" yoki "aralashuv yaxlitligi" deb atashadi (ayniqsa, chora-tadbirlar mo'ljallangan model bilan taqqoslaganda). Boshqa tomondan, tadqiq etish jarayoni innovatsiyalarni tadqiq etishni,



shuningdek, innovatsiyalarni tadbqiq etishga hissa qo'shadigan va/yoki to'sqinlik qiladigan barcha kontekstli omillarni o'z ichiga oladi. Va nihoyat, "tadbqiq etish tadqiqotlari" atamasi tadbqiq etishning ushbu jihatlaridan birini yoki har ikkalasini tekshirish uchun keng qo'llaniladi

Tadqiqot davomida adabiyotlar tahlili davomida turli mualliflar tadbqiq etish urinishlarining maqsadlari va natijalarini turlicha muhokama qilganliklari aniqlandi. Tadbqiq etishning maqsadlari va natijalarini quyidagicha tasniflash mumkin: qog'ozda tadbqiq etish - siyosat va protseduralar uchun asos sifatida innovatsiyalarni tadbqiq etish yo'li bilan yangi siyosat va protseduralarni joriy etishni anglatadi ("o'zgarishlarning yozma nazariyasi") [6]. Tadqiqotlar baholashicha, insonlar bog'liq biznes yangiliklarining 80-90%i qog'ozda tadbqiq etish bilan yakunlanadi. Jeyms D. Vestfal, Ranjat Gulati va Stiven M. Shortell tashkilotlarni tahlil qilish bo'yicha tadqiqotlarida ta'kidlashadi: "agar tashkilotlar tashqi ishtirokchilar tomonidan o'zlarining ichki operatsiyalarini tekshirishni faqat tadbqiq etishni baholash va tekshirish bilangina minimallashtirsa, ular operatsion protseduralarni rasman qabul qilingan dasturlardan ajratish orqali tadbqiq etishni umuman e'tibordan chetda qoldirishlari mumkin." [8; 371-s].

Shunday qilib, qog'ozda tadbqiq etish tashqi guruhlar talablarga muvofiqlikni nazorat qilgan (masalan, akkreditatsiya paytida) va monitoringning katta qismi qog'ozdagi izlarga qaratilganda keng tarqalishi (innovatsiya tadbqiqi dalili rolini o'ynab berishi) mumkin. Albatta, javonlardagi hamda rahbarlar shkaflaridagi qog'ozlar, hujjatlar uyushmasi iste'molchilar manfaati uchun innovatsiyalarni amaliyotga joriy etishga teng emas. Tadbqiq etish jarayoni - bu o'quv seminarlarini o'tkazish, nazoratni amalga oshirish, o'zgarishlar to'g'risida hisobot shakllarini va h.k.larni taqdim etish ("ifodalangan o'zgarishlar nazariyasi" va " faol o'zgarishlar nazariyasi") uchun yangi operatsion tartiblarini joriy etishda innovatsiyalarni protseduralar asosi sifatida moslashtirishdir. Bunda innovatsiyalar bilan bog'liq harakatlar amalga oshiriladi, voqealar hisobga olinadi va innovatsiyalar bilan bog'liq til qo'llaniladi. Biroq, sodir bo'layotgan voqealarning aksariyati funktsional jihatdan yangi amaliyot bilan bog'liq bo'lmaydi. Trening shunchaki yangi amaliyot yoki dasturga didaktik yo'nalishdan iborat bo'lishi, nazorat mashg'ulotda o'qitilganlarga daxl qilib o'qitilmaganlar bilan bog'liq bo'lmasligi mumkin, ma'lumotlar qarorlar qabul qilishga ta'sir o'tkazmasdan to'planishi va saqlanishi mumkin, yangi tilda ishlatiladigan atamalarda operatsion ma'no va ta'sir bo'lmasligi mumkin. Xorij biznesida ushbu tadbqiq etish shakli "Aldov dastur o'zgarishlari" (Fallacy of Programmatic Change) deb ataladi. Ya'ni, bu tashkilot missiyasi haqida bayonotlar berish, "korporativ madaniyat" dasturlari, o'quv kurslari yoki sifatni yaxshilash choralarining bayon etilishi tashkilotlarni o'zgartirishi va xodimlarning xatti-harakatlari kompaniyaning rasmiy tuzilmasi va tizimlarini o'zgartirish orqaligina o'zgarishiga ishonishdir.

Albatta, dalillarga asoslangan amaliyot va dasturlarning tuzoqlari hamda og'izda (so'zdagina) xizmat ko'rsatish iste'molchilarga foyda keltiradigan innovatsiyalarni amalda qo'llashga teng kelmasligi aniq. Ishlash (samarador amaliyot)ni tadbqiq etish protseduralar va jarayonlarni o'zgarishlarning aniqlangan funktsional komponentlari iste'molchilar uchun foydali tarzda tadbqiq etilishini anglatadi. Ko'rinib turibdiki, iste'molchilar, tashkilotlar va tizimlar uchun haqiqiy foyda keltiradigan tadbqiq etish yanada ehtiyotkorlik va mulohazali hatti-harakatlarni talab qiladi.



Innovatsiyalar tadbqiqiga ta'sir etuvchi omillar. J. Senchuri va A.Kassata quvvatlovchilar va to'siqlarning oddiy tavsiflaridan tashqariga chiqish uchun o'qituvchilarning qanday va nima uchun innovatsiyalarni tadbqiq etayotganligini tushunishni yaxshilaydigan bir nechta o'zaro aloqador "ta'sir doiralari"ni ajratib ko'rsatishadi [1]. Ushbu omillar ta'lim sohasidagi tadqiqotlar tadbqiqini o'zgarish nazariyalari, diffuziya nazariyasi va tashkiliy nazariyalar kabi ko'plab nazariy nuqtai-nazarlarni ko'rib chiqishni qamrab olish orqali keng tarixiy tahlil qilishdan kelib chiqqan. Ushbu omillarga oxirgi individual foydalanuvchilarning xususiyatlari, tashkiliy va ekologik omillar, innovatsiya xususiyatlari, tadbqiq etishni qo'llab-quvvatlash strategiyalari va tadbqiq etish muddatlari kiradi.

Oxirgi foydalanuvchilarning shaxsiy xususiyatlari. Innovatsiyaning oxirgi foydalanuvchisining individual xususiyatlari amalga oshirish jarayonida muhim rol o'ynashi mumkin. Xususiyatlarga yangilikning o'zi bilan bog'liq (masalan, innovatsiyani tushunish), shuningdek, yangilikdan mustaqil (masalan, o'qitish va o'rganish haqidagi qarashlar; yangi narsalarni sinab ko'rishga tayyorlik) kirishi mumkin. Bu shuni anglatadiki, tadbqiq etish faqatgina o'qituvchilarning mahoratiga bog'liq emas, u xavf va o'zgarishlarga ochiqlik elementini o'z ichiga oladi. O'qituvchilar passiv qabul qiluvchilar bo'lishmaydi, ular innovatsiyalarni o'zlarining moyilliklari, oldingi tajribalari va ishonchlar tizimi orqali faol ravishda filtrlaydilar [9].

Tashkiliy va muhit omillari. Tashkiliy va muhit omillari tadbqiq etish kontekstlarini anglatadi. Tashkilot ichida mavjud bo'lgan tashkiliy omillar sharoit (masalan, sinf sig'imi, resurslar, moddiy muhit, rejalashtirish), shuningdek ma'muriy qarorlar qabul qilish va tashkiliy madaniyat bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Atrof-muhit omillari odatda kengroq kontekstga kiradigan omillardir (masalan, davlat idoralari; iqtisodiy sharoitlar; geografik kontekst).

Innovatsiya xususiyatlari. Innovatsiyaning xususiyatlar ham tadbqiq etish jarayonida rol o'ynaydi va har ikkala (ham actual ("obyektiv"), ham oxirgi foydalanuvchi tomonidan idrok etiladigan ("subyektiv")) xususiyatlarni o'z ichiga olishi. Aktual xususiyatlarga innovatsiyalarga jalb qilingan komponentlar soni, uning samaradorligi va narxi kiradi [2]. Bu masalan, kooperativ ta'limga nisbatan olinganda kooperativ ta'lim xususiyatlarini qamrab olishi mumkin. Idrok etiladigan xususiyatlar materiallar jozibadorligini, innovatsiyadan foydalanish qanchalik osonligi va uning subyektiv o'rinnililigini qamrab olishi mumkin[4]. Xususiyatlar ob'ektiv yoki sub'ektiv deb hisoblanishi yangilikni taqdim etish usuli (ya'ni noaniqlikni bartaraf etishga va yangilikni mahalliy sharoitga moslashtirish uchun ko'proq yoki kamroq joy ajratishga) bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Tadbqiq etishni qo'llab-quvvatlash strategiyalari. Tadbqiq etishni qo'llab-quvvatlash strategiyalari ko'pincha o'zgartirish harakatlari uchun muhim deb hisoblanadi va oxirgi foydalanuvchilarni qo'llab-quvvatlash uchun muntazam, maqsadli harakatlarni masalan, qo'llab-quvvatlov, murabbiylik va kasbiy rivojlantirishni rejalashtirishni o'z ichiga oladi. Tadbqiq etishni qo'llab-quvvatlash strategiyalari innovatsiyani ishlab chiquvchi, tadbqiq etilayotgan tashkilot (masalan, maktab, maktab kengashi/tuman) yoki vositachi tomonidan taklif qilinishi mumkin. Innovatsiyalarni tadbqiq etishni o'rganishda oxirgi foydalanuvchilar qanday qo'llab-quvvatlanishini hisobga olish amaliy tadqiqotlarning asosiy komponenti hisoblanadi.



Tadbiq etish muddati. Tadbiq muddatlari bo'yicha tadbiq etishni o'rganish tadbiq etish jarayoniga longityud yondashuvni talab qiladi. Bu dastlabki moslashishdan boshlab uni ishlatish odatiy holga aylangunga qadar tadbiq etish bosqichlarini ko'rib chiqishni o'z ichiga oladi. Tadbiq etish yoki moslashish bosqichlarida turli xil omillar yoki ta'sir doiralari turlicha rol o'ynashi mumkin.

Xulosa

Ilmiy-nazariy tahlillar natijalari bo'lgan modellar, tavsiyalar, texnologiyalarni amaliyotga tadbiq etish, muayyan faoliyat, sohaning amaldagi ish tartibi, odatlari, faoliyatini o'zgartirish murakkab, ko'pqirrali jarayon. Bu jarayonda til, konseptual modellar, tadbiq etuvchining shaxsiy yondashuvdagi farqlar to'siq sifatida ta'sir qilsa, oxirgi foydalanuvchining shaxsiy xususiyatlari, tashkiliy va muhit omillari, innovatsiya xususiyatlari, tadbiq etish muddatlari, tadbiq etishni qo'llab-quvvatlash strategiyalari tadbiq etish jarayonning kechishi, natijalari va samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillar sifatida xizmat qiladi. Pedagogik innovatsiyalarni amalga tadbiq etishda ham ayni to'siq va omillar ahamiyat kasb etadi va ta'lim sohasida islohotlar amalga oshishida ushbu islohotlarning nazariy hujjatlar, ishlanmalar, modellardan amaliyotga tadbiq etilishida yuzaga keluvchi to'siqlar, ta'sir etuvchi omillarni bilish tadbiq samaradorligini ta'minlovchilardan biri sifatida xizmat qilishi mumkin.

References:

1. Century, J., & Cassata, A. (2016). Implementation research: Finding common ground on what, how, why, where, and who. *Review of research in education*, 40(1), 169-215.
2. Century, J., Rudnick, M. & Freeman, C. Measuring Fidelity of Implementation: A Foundation for Shared Language and Accumulation of Knowledge. *American Journal of Evaluation*. 2010;31(2):199-218.
3. Damschroder, L., Aron, D., Keith, R., et al. Fostering implementation of health services research findings into practice: a consolidated framework for advancing implementation science. 2009; 4:50.
4. Dearing, J. W. (2009). Applying Diffusion of Innovation Theory to Intervention Development. *Research on Social Work Practice*, 19, 503-518. <https://doi.org/10.1177/1049731509335569>
5. Fixsen, D.L. & Naoom, Sandra & Blase, Karen & Friedman, Robert & Wallace, F.. (2005). *Implementation Research: A Synthesis of the Literature*.
6. Hernandez, M., & Hodges, S. (2003). Building Upon the Theory of Change for Systems of Care. *Journal of Emotional and Behavioral Disorders*, 11(1), 19-26. <https://doi.org/10.1177/106342660301100104>
7. Hofman, R.H., Jansen, E. and Spijkerboer, A. (2011), "Innovations: perceptions of teachers and school leaders on bottlenecks and outcomes", *Education As Change*, Vol. 15 No. 1, pp. 149-159.
8. James D. Westphal, Ranjay Gulati and Stephen M. Shortell. Customization or Conformity? An Institutional and Network Perspective on the Content and Consequences of TQM Adoption. *Administrative Science Quarterly*, Vol. 42, No. 2 (Jun., 1997), pp. 366-394



9. Penuel, William & Phillips, Rachel & Harris, Christopher. (2014). Analysing teachers' curriculum implementation from integrity and actor-oriented perspectives. Journal of Curriculum Studies. 46. 751-777. 10.1080/00220272.2014.921841.